

ISLOM BANKI O`ZBEKISTONGA NEGA KERAK

*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti
Namangan filiali 4-kurs talabasi.
Oribjonova Gavharoy Ahliddin qizi*

Annotatsiya: O`zbekiston iqtisodiyotida moliya tizimini diversifikatsiya qilish, aholining turli qatlamlariga mos bo`lgan moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va adolat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy muhitni yaratish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Islom banki tizimini joriy etish mamlakat uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Islom banklari foizsiz moliya tamoyillariga asoslanib, real sektorni rivojlantirish, kichik va o`rta biznesni qo`llab – quvvatlash hamda ijtimoiy adolatni ta`minlashda muhim ro`l o`ynaydi. Bundan tashqari, Islom bankchiligi xalqaro investitsiyalarni jalb etish, halol moliyaviy muhitni yaratish va aholini diniy e`tiqodlariga mos xizmatlar ko`rsatish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shuning uchun Islom banki tizimini O`zbekistonda rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma`naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

**Kalit so`zlar:** Islom banki, foizsiz moliya, iqtisodiy barqarorlik, halol moliyaviy tizim, investitsiya, ijtimoiy adolat, O`zbekiston.

Аннотация: В экономике Узбекистана растёт необходимость диверсификации финансовой системы, расширения спектра финансовых услуг, соответствующих потребностям различных слоёв населения, и создания справедливой экономической среды. В этом контексте внедрение исламского банкинга имеет большое значение для страны. Исламские банки, основанные на принципах безпроцентного финансирования, играют важную роль в развитии реального сектора, поддержке малого и среднего бизнеса, а также в обеспечении социальной справедливости. Кроме того, исламский банкинг способствует привлечению международных инвестиций, формированию честной финансовой среды и укреплению экономической стабильности. Поэтому развитие исламского банкинга в Узбекистане имеет не только экономическое, но и социальное и духовное значение.

Ключевые слова: исламский банк, безпроцентное финансирование, экономическая стабильность, честная финансовая система, инвестиции, социальная справедливость, Узбекистан.

Annotation: In Uzbekistan's economy, the need to diversify the financial system, expand financial services tailored to different segments of the population, and create an equitable economic environment is steadily increasing. From this perspective, introducing the Islamic banking system is of great importance for the country. Islamic banks, based on the principles of interest-free finance, play a key role in developing

the real sector, supporting small and medium-sized enterprises, and ensuring social justice. Moreover, Islamic banking contributes to attracting international investments, establishing a transparent financial environment, and strengthening economic stability. Therefore, the development of Islamic banking in Uzbekistan holds not only economic but also social and moral significance.

Keywords: Islamic banking, interest-free finance, economic stability, transparent financial system, investment, social justice, Uzbekistan.

Kirish.

Islomiy banklar va moliya tizimi musulmonlar jamoasiga diniy jihatdan maqbul boʻlgan bir qancha bank xizmatlarini taklif qilmoqda va xizmat koʻrsatmoqda. Bundan asosiy maqsad, iqtisodiy farovonlikka erishish, iqtisodiy jihatdan oʻsish, daromad va boylikni taqsimlash, pul qiymatining barqarorligiga erishishdan iborat.

Islomiy moliya sanoati soʻnggi 20 yil ichida Osiyoda sezilarli darajada oʻsdi. Yaqin Sharq va Osiyodan kelgan sarmoyadorlarning diniy eʼtiqodlarga mos kelganligi sababli islomiy bank mahsulotlariga sarmoya kiritish tobora ortib bormoqda. Osiyoning bir qancha hukumatlari va davlat organlarining saʼy harakatlari bilan islom moliya bozorlarida investitsiyalar oʻsganligini va iqtisodiy oʻsishga erishganligini koʻrish mumkin.

Islom bank ishi, moliya tizimidan ajralib turadi yaʼni, islomdan kelib chiqadigon keng qamrovli axloq va axloqiy qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Anʼanaviy moliyadan farqli oʻlaroq, islom moliyasi umumiy tamoyillarga asoslanadi, har qanday islomiy iqtisodiy yoki moliyaviy bitimlarni tartibga soluvchi koʻrsatmalarini tashkil etadi.

Islom moliyasini joriy etishning huquqiy bazasini shakllantirilmaganligi islom moliyasini joriy etish borasidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Islom moliyaviy mahsulotlarni qonunchilik asosida tartibga solishning mavjudligi ushbu bozorni yangi darajaga koʻtarish imkonini beradi. Shuningdek, qonunchilik asosida tartibga solishlarsiz islomiy moliyaviy mahsulotlar isteʼmolchilarning huquqlari lozim darajada himoya qilina olmaydi, yaʼni aholining mana shunday amaliyotlarga boʻlgan ishonchini suisteʼmol qilish ehtimoli ortadi.

2020-yil dekabr oyida Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish boʻyicha huquqiy bazani yaratish vaqt- soati yetib kelgani va bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etilishini takidlaganliklari huquqiy baza yaratilishiga ilk qadam boʻldi. Joriy yilning 11-yanvardagi matbuot anjumanida Markaziy bank raisi oʻrinbosari Bekzod Hamroyev “Nobank kredit tashkilotlari toʻgʻrisida”gi Qonun yangidan qabul qilinishi va ushbu Qonunda Islom moliya tushunchasini

inobatga olinish to'g'risidagi chiqish qildi va yaqin keying oylar ichida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida “ Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash faoliyati to'g'risida”gi qonun qabul qilindi.

Islomiy banklarni rivojlantirish uchun yurtimizda olib borilayotgan ishlar.

Yurtimizda hozirgi kunda islomiy banklar tizimini rivojlantirish uchun bir qancha ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5- martdagi “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank sektoriga islomiy moliyalashtirish infratuzilmasini rivojlantirish doirasida Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha islom Korporatsiyasining maslahat yordamini jalb qilish belgilangan.

Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 - maydagi “ islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to'g'risida”gi qarorida ham Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalariga urg'u berilgan.

Mazkur qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida 2019 yil 22- avgust kuni “Trastbank” xususiy aktsiyadorlik banki va Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha islom Korporatsiya o'rtasida “Maslahat yordami to'g'risida”gi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, bank tizimiga “Islom darchasi” xizmatlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bu o'z navbatida , hamkorlik va shariat shartlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Bu katta yutuq hisoblanadi. Kelajakda islomiy banklarning O'zbekistonda ko'payishi kutilmoqda.

Islomiy moliyalashtirishning an'anaviy moliyalashtirishdan farqi shundan iboratki, islomiy moliya foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishning o'zida namoyon qiladi. Bunda islomiy banklar mijoz talabi bo'yicha obyektini qurib berishi, asbob- uskunalar, tovar, xom ashyo sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkun. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyoti yotadi ya'ni pul muomala vositasi sifatida ko'riladi, ya'ni pulni o'zini foizga yoki biron-bir naf/foйда evaziga qarz berish taqiqlanadi.

Islom bank ishi shariatga mos keladigon bank tizimidir va bu tizimning muhim jihati riboni qoralaydi. Shariat moliyaviy tavakkalchilik bilan savdo qilishni taqiqlaydi, chunki islomda qimor o'yini harom hisoblanadi . Musulmonlar harom hisoblagan bizneslarga sarmoya kirita olmaydilar ya'ni sipirtli ichimliklar, islomga zid keladigon ishlar bilan shug'illanmaydilar.

O'zbekistonda Islom bankchiligining rivojlanishida yana bir nechta muamolar mavjuddir. Qisqacha qilib aytganda, Islom bankchiligini O'zbekistonda joriy qilinishining asosiy mezonlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, banklar faoliyati to'g'risidagi qonunlarga, soliq va fuqorolik kodekslariga va boshqa qonun osti hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki alohida qonun qabul qilish orqali amalga oshirish mumkun. Bundan tashqari, O'zbekistonda bu sohada kadrlarni tayyorlash O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida 2018- yilda boshlangan edi, lekin 2019-yilda bu yo'nalish bo'yicha qabul amalga oshirilmadi. Bu o'z- o'zidan mazkur sohada kadrlar yetishmasligini keltirib chiqaradi, ayniqsa Shariat kengashlariga munosib nomzodlar juda kam yoki umuman yo'q. Shuningdek, bu borada aholining savodxon-ligini oshirish ham muhim sanaladi, chunki islomiy moliyalashtirish bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan aholi, uni an'anaviy moliyalashtirishdan farqini tushunib yetmasligi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

2021 yilda Markaziy bank islom moliyasi konsepsiyasini o'z ichiga olgan nobank kredit tashkilotlari to'g'risida qonun loyihasini ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Bu haqida 11-yanvar kuni AOKAdagi matbuot anjumanida Markaziy bank raisi o'rinbosari Behzod Hamrayev ma'lum qildi.

Islom bank ishi shariatga mos keladigon bank tizimidir va bu tizimning muhim jihati riboni qoralaydi. Shariat moliyaviy tavakkalchilik bilan savdo qilishni taqiqlaydi, chunki islomda qimor o'yini harom hisoblanadi. Musulmonlar harom hisoblagan bizneslarga sarmoya kirita olmaydilar ya'ni sipirtli ichimliklar, islomga zid keladigon ishlar bilan shug'illanmaydilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish g'oyasi amala oshirilmoqda bu jarayonda banklarni nufuzini ko'tarish muhim o'rin tutadi. Buning uchun davlatimizda islom bank tizimini joriy qilish ancha samarali natija berishi mumkun. Chunki islom banklari moliyaviy jihatdan yaxshi ko'rsatkichga ega hamda ularning daromadi ham muntazam ortib bormoqda. Islom banklarida sudxo'rlik yo'qligi sababli yurtimizda ularga yetarli darajada talab bo'ladi. Islom bank tizimining qonunchilikda asosini yaratish, xalqaro islom moliya tashkilotlarida hamkorlikni yanada kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.worldpopulationreview.com
2. OECD ta'rifi.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida" O'RQ-765-son qonuni. www.lex.uz .
4. www.islommoliyasi.uz ;

4. O.Akhmadjonov, A.Abdullaev, J.Anvarov, S.Ismoilov. ISLOM MOLİYASI// scientific progress. Vol 3. Issue 2. 2022y. 45-b
5. Islomiy moliya asoslari – E.Baydaulet, H.Hasanov. Toshkent: O'zbekiston NMIU.2019.17.18-b.
6. M.Pulatova, M.Mehmonaliyev. Islom moliyasi va uning rivojlanish evolyutsiyasi // Science and Education. 2022. №2.
7. Islom banki va O'zbekiston – O. Akhmadjonov. Sh. Nishonqulov. R. Botirjon.N. Ayubxon. M. Asadbek. Scientific Journal Impact Factor.
8. Wayne A.M.Visser and Alastair McIntosh; 180-pp.
9. <https://www.statista.com>– Global No.1 Business Data Platform.